

*Türkiye Cumhuriyeti'nin 100.
Yılına İthafen*

FİLOLOJİ VE KÜLTÜR ARAŞTIRMALARI

3

Editörler

Zhyldyz İSMAİLOVA
Saidbek BOLTABAYEV



T.C. KARABÜK ÜNİVERSİTESİ
CENGİZ AYTMAOV TÜRK DÜNYASI UYGULAMA VE ARAŞTIRMA MERKEZİ

ÖZBEKİSTAN CUMHURİYETİ ALFRAGANUS ÜNİVERSİTESİ

TÜRKİYE CUMHURİYETİ'NİN 100. YILINA İTHAFEN

FİLOLOJİ VE KÜLTÜR ARAŞTIRMALARI

3

KARABÜK - 2024

**TURKIYA RESPUBLIKASI
KARABUK UNIVERSITETI
CHINGIZ AYTMATOV NOMLI TURK DUNYOSI AMALIYOT VA TADQIQOT
MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ALFRAGANUS UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA VA MADANIYAT MASALALARI
(ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami)
№ 3

TURKIYA RESPUBLIKASINING 100 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

KARABUK - 2024

Kitabın tüm hakları Karabük Üniversitesine aittir.

Karabük Üniversitesi Yayınları-...

E-ISBN ...

Ocak 2024

Editör:

Prof. Dr. Zhyldyz İSMAİLOVA

Doç. Dr. Saidbek BOLTABAYEV

Yayın Danışmanı:

Dr. Öğr. Üyesi Muhammed Ali YETGİN

Cengiz Aytmatov Türk Dünyası Uygulama ve Araştırma Merkezi Yayın Kurulu:

Dr. Öğr. Üyesi Deva ÖZDER

Dr. Öğr. Üyesi Muhammed Ali YETGİN

Dr. Öğr. Üyesi Gulzoda MAKHMUDJONOVA

BİLİM KURULU:

Prof.Dr. Kasımcıan SADIKOV (Özbekistan)

Prof. Dr. Nefes ŞADMANOV (Özbekistan)

Prof.Dr. Nodirxon KHASANOV (Özbekistan)

Doç. Dr. Şerzodhon MAHMUDOV (Özbekistan)

Doç. Dr. Rihstilla ALİMUHAMEDOV (Özbekistan)

Doç. Dr. Zuhra AKBAROVA (Özbekistan)

Doç. Dr. Asror MUHAMMEDOV (Özbekistan)

Doç. Dr. Hülya UZUNTAŞ (Türkiye)

Doç. Dr. Kayrat BELEK (Kırgızistan)

Dr. Alimcan DAVLATOV (Özbekistan)

Dr. Avazkhon UMAROV (Türkiye)

Dr. Ergash JUMAYEV (Türkiye)

Dr. Aitmatamat KARİEV (Kırgızistan)

Dr. Hamidulla TADZHİYEV (Kazakistan)

Dr. Marlen ADİLOV (Kazakistan)

Her hakkı mahfuzdur. Bu makaleler kitabında yayımlanan makaleler ve yazılardaki görüş ve düşünceler müelliflerinin görüşleridir. Kitapta yer alan yazıların dil, üslup ve bilimsel mesuliyeti yazarlarına aittir

İletişim

Karabük Üniversitesi Cengiz Aytmatov Türk Dünyası Uygulama ve Araştırma Merkezi

78050, Karabük, Türkiye

www.atam.karabuk.edu.tr

İÇİNDEKİLER

SUNUŞ	7
Абдыкерим МУРАТОВ, Нигора АЛИСУЛТАНОВА	
Кыргыз Професионал Жазуучуларынын Чыгармаларында Кошок Жанрынын Колдонулушу	10
Anvar ERQO`ZIYEV	
Yevropa-O`rta Osiyo savdo aloqalarida Usmonli davlatining tranzit ahamiyati xususida (XVI-XVIII asrlar)	24
Azad ALİMOV	
Alî Şîr Nevâyî'nin <i>Hamsetü 'l-Mütehayyirîn</i> Eserinin Tenkitli Metni Üzerine.....	34
Dilfuza TURDALIYEVA	
Xalq maqollarining lingvistik xususiyatlari	47
Dilorom SALOKHIY	
The Role of Creative Heritage Of Alisher Navoiy in The Development of Spiritual Reflection in The East.....	54
G‘ulom BOBOJONOV	
Sharq mumtoz adabiyotining taraqqiyot tamoyillari	79
Gulbahar TOKIMBETOVA	
Eastern Classical Poetry, Artistic Traditions in Berdakh’s Lyrics	94
Gulnara ESHCHANOVA	
Hedonism in Modern Uzbek Literature.....	102
Gulnora NIYAZOVA, Nafosat ZARIPBOYEVA	
Badiiy dialogik diskursning verbal va noverbal xususiyatlari.....	112
Gulnoz BAKHODIROVA, Dilfuza YARASHEVA	
Linguistic And Cultural Features of Joy And Sorrow Concepts in Uzbek And English	123
Gulnoz RUZMATOVA	
Maurice Merleau-Ponty’s Philosophy of “Phenomenological” Man	128
Husniddin NAIMOV	
Features of Stratification of Anthropogenic Landscapes in The Mountainous Regions of Northern Fergana.....	146
Jahongir TURDIYEV	
Uyg‘ur yozuvli “Me’rojnoma” asarida leksik va morfologik birliklar masalasi.....	157
Laylo RAUPOVA, Shoxina BAXADIROVA	
Ingliz tilini onlayn darslar yordamida o‘qitishning nazariy asoslari	170

Lolaxon AMINOVA	
Asarlarda voqealarni ramzlar vositasida tasvirlash	180
Maftuna NEMATOVA	
Lakunarlik hodisasining lingvokognitiv tahlili.....	186
Mahzuna KAMALOVA	
Jadidlar faoliyatida ayollar ishtiroki	198
Maksudaxon XALLOKOVA	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik asoslari	208
Mohitabon KOMILOVA	
O'zbek tilidagi xitoycha o'zlashmalarning leksik qatlamga ta'siri xususida	216
Nafisa JURAYEVA	
The Role of Shrines And Cemeteries in Forming The Historical Topography of Bukhara City	224
Nazmiya MUXITDINOVA	
Mirhasan Sadoiy she'riyatida irfoniy mavzularning badiiy talqini	234
Nozima QAZAQOVA, Dilarom BABAXANOVA	
Badiiy diskursda pragmatik omillarning o'rni	248
Odiljon AKBAROV	
Chingiz Aytmatov asarlarida maktab mavzusi va ta'lim jarayoniga munosabat	261
Rahima DAMINOVA	
Buyuk shayx va shoir she'riyatining badiiy latofati.....	275
Sabohat QAHHAROVA	
“Qadam ranjida qilmoq” frazemasining semantik xususiyatlari va tezaurusi.....	287
Sarvinoz MELIBOYEVA	
Voyaga yetayotgan qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida ijtimoiy faolligini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlari samaradorligi	296
Sevara PULATOVA	
O'zbekistonda ma'rifatparvar islom qadriyatlari rivojlanishida madaniy diplomatiyaning o'rni	307
Shakhnoza ALIYEVA, Khurshidakhon ABDULLAYEVA	
Expression of Giants And Their Strange Living Places in English And Uzbek Fairy Tales .	322
Shohista NAZAROVA	
Komil Xorazmiy muxammaslarida shakl va mazmun uyg'unligi	329
Toji SAMANDAROV, Zarnigor NE`MATOVA	
From Short Narratives To Critical Thinking: Developing Efl Learners' Critical Thinking Skills Through National Fairy Tales In Reading Classes.....	337

Valijon QODIROV

Chingiz Aytmatov ijodida xalq pedagogikasiga oid qarashlar344

Xurshida NISHONOVA

A`zam O'ktamning “Xabar” qissasida milliy ruh masalasi356

Заравшан КАЛЕНДАРОВА

Бошланғич синф ўқувчиларининг фикрлаш қобилиятини шакллантиришда муаммоли ўқитиш технологияси ва муаммоли вазиятларни яратиш методларининг аҳамияти369

Zulfiya MARUFOVA

Mumtoz badiiy matnlarda lingvomadaniy konseptlarning paremiologik vositalar orqali voqelanishi.....385

Zuxra ACHILOVA

“Malla savdogar” dostonida darvozabonlar va darvoza ramzi396

Zuxraxan KASIMOVA

Andijon viloyatida to'y marosimi folklori janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari403

“QADAM RANJIDA QILMOQ” FRAZEMASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA TEZAURUSI

“KADEM RENCİDE KILMAK” DEYİMİNİN SEMANTİK ÖZELLİKLERİ VE KAVRAM ALAMI

Semantic features and thesaurus of the phrase of verb “qadam ranjida qilmoq”

Sabohat QAHHAROVA*

Annotatsiya

Har qanday tilni o‘zlashtirishda so‘z boyligini o‘rganish juda muhim, chunki u har qanday tilning asosi hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, zamonaviy leksikografiya deb nom olgan kompyuter leksikografiyasiga murojaat qilinadi. Kompyuter leksikografiyasi mavjud an‘anaviy leksikografiyadan bir qator afzallik xususiyatlari: qulayligi, kamxarjligi, leksik birliklarning barcha ma‘nolari bir joyda jamlanganligi bilan tubdan farq qiladi. Bunday tipdagi lug‘atlarni yaratish uchun lug‘aviy birliklarning semantikasi ishlab chiqilishi zarur. Shu sabadan hozirgi vaqtda lingvistik tadqiqotlarning aksariyati fe‘l semantikasiga qaratilgan. Nutqimizdagi barcha fe‘llar leksema yoki frazeologik birlik shaklida namoyon bo‘ladi. Ana shunday harakat-hodisalarni, xususan, yo‘nalma harakat semasini ifoda etuvchi lisoniy birliklar ko‘pgina tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan, shu bois tilshunoslikda uning tabiati, usuli to‘g‘risida turlicha qarashlar, fikr-mulohazalar mavjud. Chunki har bir olim mazkur birlikni o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqib tavsiflaydi, tasniflaydi. Ushbu maqola ham yo‘nalma harakat fe‘llari guruhiga kiruvchi “qadam ranjida qilmoq” frazemasi semantikasi va tezaurusiga bag‘ishlangan. Mazkur birlik maqolaning tadqiq obyekti sifatida kelmoq, tashrif buyurmoq, qadam tashlamoq, qadam qo‘ymoq, qadam bosmoq, odimlamoq fe‘llari bilan bir qatorda bormoq, ketmoq, jo‘namoq kabi leksemalar o‘rnida ham qo‘llaniladi va turli leksik birliklar qurshovida har xil semalarni ifodalab keladi.

Kalit so‘zlar: semantika, tezaurus, leksikografiya, qadam ranjida qilmoq, frazema, leksema

Abstract

Learning vocabulary is very important when mastering any language, as it is the basis of any language. To do this, they first turn to computer lexicography, which we call modern lexicography. Computer lexicography fundamentally differs from the existing traditional lexicography by a number of advantages: convenience, scarcity, the fact that all the meanings of lexical units are collected in one place. To create dictionaries of this type, it is necessary to develop the semantics of dictionary units. From Shu Saba, most of the linguistic research is currently focused on the semantics of verbs. All

* O‘zMU tayanch doktoranti.

Özbekistan Milli Universiteti doktora öğrencisi, sabohatqahhorova922@gmail.com

verbs in our speech are represented in the form of a lexeme or phraseology. Linguistic units expressing such phenomena of movement, in particular this directional movement, have been studied by many linguists, therefore in linguistics there are different points of view, opinions about its nature, method. Because every scientist characterizes, classifies this unity based on his point of view. This article is also devoted to the semantics and thesaurus of the phrase of verb “qadam ranjida qilmoq”, which refers to the group of verbs of action direction. This unit is used as the object of research of the article together with the verbs to come, to visit, to step backwards, to step in, to step out instead of such lexemes as to go, to leave various semantics surrounded by various lexical units.

Keywords: semantics, thesaurus, lexicography, step on, phrase, lexeme

Genişletilmiş Özet

Herhangi bir dili öğrenirken o dilin söz varlığı çok önemlidir, çünkü söz varlığı dilin temellerindendir. Bunun için son yıllarda öncelikle modern sözlükbilimi olarak adlandırılan bilgisayarlı sözlükbilimine başvurulmaktadır. Bilgisayarlı sözlükbilim, birtakım avantajlarla temel olarak mevcut geleneksel sözlükbilimden farklıdır: kullanım kolaylığı, düşük maliyet, sözcük birimlerinin tüm anlamları tek bir yerde toplanmıştır. Bu tür sözlüklerin oluşturulabilmesi için sözcük birimlerinin anlambiliminin geliştirilmesi gerekmektedir. Bu nedenle dilbilimsel araştırmaların çoğu şu anda fiil anlambilimine odaklanmaktadır. Konuşmamızdaki tüm fiiller bir sözcük birimi veya ifade birimi biçiminde görünür. Bu tür hareket olaylarını, özellikle de yönlü hareket şemasını ifade eden dil birimleri birçok dilbilimci tarafından incelenmiştir, bu sebeple dilbilimdeki doğası ve yöntemi hakkında farklı görüşler vardır. Çünkü her bilim adamı bu birimi kendi bakış açısına göre tanımlar ve sınıflandırır.

Fiillerden oluşan kelime grupları dilin sözcük sisteminin en karmaşık birimi ve aynı zamanda bu sistemin merkezi birimidir. Dil sisteminin bir birimi olarak deyimsele ifadelerin kapsamlı bir şekilde incelenmesi, modern dilbilimin önemli bir görevidir. Bu tür birleşik fiil gruplarının anlambilimini belirlerken sözdizimine dikkat etmek gerekir. Her şeyden önce, fiilin farklı sözdizimsel biçimlerini açıkça sınırlar. Bu formların her biri bir veya daha fazla değişimle, yani eşdeğer birimlerle karakterize edilir. Özbekçe birleşik fiil grupları daha sonra bu değişikliklere göre analiz edilir: her birleşik fiil grubu veya kalıplaşmalar eşdeğer birimlerle değiştirilir. Ön çalışma, bu tür kelime grupları ve deyimlerin anlambiliminin bazı yönleri ile sözdizimsel biçimleri arasındaki ilişkinin mevcut olduğunu göstermektedir. Bu gözlemler sonucunda, Özbekçede kullanılan "kadem rencide kılmak" ifadesinin konuşma sürecinde 15 farklı fiil sözcüğünün yerini aldığı açıkça ortaya çıkmaktadır. Bu sayede deyim

sözcüksel-anlamsal grubunu geliştirmek mümkündür. Çeşitli doğal dil işleme (NLP) uygulamalarında sözlüksel-anlamsal fiil sınıflandırmaları büyük önem taşımaktadır. Bu sebeple benzer sözdizimsel biçimlere sahip sözcük birimlerinin tespit edilmesi, anlamsal olarak tutarlı fiil sınıflarını oluşturmanın etkili bir yolu olduğu gösterilmekte ve fiil deyimi anlamını yansıtan geniş yelpazedeki sözdizimsel varyasyonlara göre fiili ayırt etmenin farklılıkları belirlenmektedir.

Hareket ortamı açısından fiillerin üç sözcüksel-anlamsal gruba (LSG) ayrıldığı bilinmektedir: sert bir yüzey üzerinde hareket anlamına gelen fiiller; havada hareket etme anlamına gelen fiiller; sıvı bir ortamda hareketi ifade eden fiiller. "Kadem rencide kılmak" deyimi sert zemin üzerinde hareket anlamına gelen fiiller grubuna ait olup, hareketin mahiyeti, hareketin metodu, ortamı, temposu ve mecazi özellikleriyle belirlenir, dolayısıyla edebiyat ve gazete dilinde aktif olarak kullanılır. Bu deyim, konuşma sürecindeki belirli sözlük birimlerindeki iki tür hareketi ifade eder: çoğunlukla yavaş, bazen yoğun bir hareket. İfade, "ölçülü hareket etme, heybet, saygı, nazlı edalı hareket etme" gibi anlamlar arşisemde somutlaşması için eylem kipini belirten fiiller grubuna aittir.

Bu makale aynı zamanda yön eylem fiilleri grubuna ait olan "kadem rencide kılmak" ifadesinin anlamlarına ve ifadenin eş anlamlıları üzerine hazırlanmıştır. İçinde "**kadem**" (adım) kelimesiyle ilgili sözcük birimlerinin yanı sıra, "**kadem rencide kılmak**" ifadesinin konuşma sürecindeki çeşitli anlamları ve bu ifadenin hiperonim-totonim ilişkisi dikkate alınmıştır. Araştırma sırasında "kadem rencide kılmak" ifadesinin söylenişi sırasında daha çok özne veya nesne tarafından hareketten ziyade özneye veya nesneye doğru hareket kalıplarında olduğu tespit edildi, eş anlamlılar sözlüğündeki ifadelerine de dikkat çekildi. Bu makalenin araştırma konusu olan bu deyim, "gelmek, ziyaret etmek, adım atmak, teşrif etmek, adım adım gitmek" fiilleri ile birlikte "gitmek, varmak" gibi sözlükbirimlerin yerine de kullanılır ve çeşitli sözcük birimlerinin çevresinde farklı anlamları karşılar.

Kirish

So'zning leksik ma'nosini aniqlash uning semantikasi, pragmatikasi, sintaktikasi bilan belgilanadigan murakkab jarayondir. Semantikada leksik ma'no tuzilishida signifikativ va denotativ jihatlar ajralib turadi. Pragmatik jihatdan so'zning leksik ma'nosi emotsional-ekspressiv (ijobiy yoki salbiy bo'yoq) baholashni o'z ichiga oladi. Ma'noning sintagmatik tomoni sintaktik, ya'ni leksik birliklarning jumla tarkibidagi boshqa til birliklari ma'nolari

bilan uzviy bog'liqligida namoyon bo'lsa, paradigmatic jihatida esa sinonimik qator ichidagi pozitsiyasi bilan belgilanadi (Yartseva, 1990: 262).

So'nggi yillarda jahon tilshunosligida muayyan leksik birlik(leksema, frazema)larni semantik jihatdan alohida tadqiq etish, uning leksik-semantik munosabatlarini belgilash va shu asosda zamonaviy elektron tezaurus lug'atlarini yaratish borasida samarali ushlar qilinmoqda. Xususan, tilshunoslikda yo'nalma harakat semasini anglatuvchi leksik birliklar turlicha bo'lib, ular qay usulda ifodalanishidan qat'i nazar barcha yo'nalma harakat fe'llari subyekt yoki obyekt tomon kelish hamda subyekt yoki obyekt tomondan ketish semalari atrofida birlashadi. Mazkur leksik birliklar qatorida **“qadam ranjida qilmoq”** frazemasini tahlili alohida tadqiqni talab etadigan birlikdir.

Kuzatishlar davomida o'zbek tilshunosligida **“qadam ranjida qilmoq”** lug'aviy birligi frazema sifatida mavjud izohli frazeologik lug'atlarda qayd etilmaganligining yoki leksema sifatida olti jidlik izohli lug'atda alohida so'zlik ko'rinishida berilmaganligining guvohi bo'lamiz (O'zTIL, 2008, 2020, 2022; Rahmatullayev, 1978). Ammo faqat izohli lug'atda **“qadam”, “ranjida”, “qilmoq”** leksemalarining ma'noviy xususiyatlari turli xil o'rinlarda ayri-ayri izohlanganligini ko'rish mumkin:

- **“qadam”** asli arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, **“oyoq kafti, tovon; oyoq”** ma'nolarini anglatadi;
- **“ranjida”** so'zi asli fors tilidan kirib kelgan, o'zida **“uringan, qiynalgan, ozor chekkan”** semalarini idodalaydi;
- **“qilmoq”** o'z qatlamga oid so'z bo'lib, **“bajarmoq, bajo keltirmoq”** kabi ma'nolarga ega (O'zTIL, 2008, 2020, 2022).

Ko'rinadiki, yuqoridagi uch xil semali leksemani gorizontallik shaklda ketma-ket keltirish oqibatida **“ikkala oyoqni urintirish natijasida muayyan harakatni bajarish, bajo keltirish, ya'ni oyoq yordamida harakatlanish, tashrif buyurish”** semalarini o'zida ifodalovchi **“qadam ranjida qilmoq”** frazemasini vujudga kelganligini payqash mumkin. Avvalgi jumlada mazkur birlik na frazema, na leksema sifatida izohli lug'atlarda berilmaganligini aytib o'tgan edik. Bu ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanma sanalganligi uchun uni frazeologik birlik deyish o'rinli.

A.Berdialievning **“Suppletivizm va unga daxldor ba'zi tushunchalar haqida”** (2011: 9-16) maqolasida, rus tilshunosligida maxsus ishlanmagan, turkologiyada esa til ilmi mutaxassislari noma'lum bo'lgan lug'aviy sathning dolzarb bir muammosi haqida fikr yuritiladi. E'tirof etilishicha, bir umumiy klassemaga ega bo'lgan har xil lug'aviy-grammatik kategoriyaga mansub ikki leksema munosabatida suppletiv munosabat vujudga kelib, shu

munosabatni tashkil qilgan soʻzlar lugʻaviy suppletivizmga mansub boʻlarkan. Ana shu umumiy klassemada asosida ikki lugʻaviy birlik – lugʻaviy suppletiv sintagmatik munosabatga kirishib, sintagma (birikma) hosil qilar ekan. Olim *qoʻl va ushlamoq, koʻz va koʻrmoq, tabib va davolamoq, oyoq va yurmoq* singari soʻzlararo suppletiv aloqa mavjud va shu sabab bu soʻzlarni lugʻaviy suppletivlar deya izohlaydi.

Asosiy qism

Maʼlumki, suppletiv aloqa yordamida koʻz bilan koʻrmoq (koʻz va koʻrmoq), quloq bilan eshitmoq. oyoq bilan yurmoq (oyoq va yurmoq) kabi leksikalizatsiyalashgan lugʻaviy birlik (frazologik ibora)lar hosil boʻlgan. Shu bois **“qadam ranjida qilmoq”** birligi zamidida “oyoq bilan yurmoq” semasi mujassamligi sabab ham uni suppletiv aloqa natijasida hosil boʻlgan frazema deyish mumkin. Bunday iboralar suppletivizmning til lugʻaviy sathiga xos koʻrinishi boʻlib, unda tarkibiy qismlar bir umumiy maʼno — arxisema (klassema) qamrovida boʻladi, biri boshqasini mazmunan taqozo etadi.

“Qadam” soʻzi bilan bogʻliq lugʻaviy birliklarni quyidagicha ikki guruhga ajaratish maqsadga muvofiq:

- 1) leksemalar: *qadam tashlamoq (qadam otmoq), qadam bosmoq, qadam qoʻymoq, qadam olmoq, qadamlamoq;*
- 2) frazemalar: *qadam ranjida qilmoq, qadam uzmoq.*

“Qadam ranjida qilmoq” frazemasi nutq jarayonida turli xil semalarni ifodalaydi:

	“Qadam ranjida qilmoq” frazemasi semalari	Misollar
1	Subyekt tomonga sekin harakatlanish (aynan tashrif buyurmoq, kelgan, qadam qoʻymoq, qadam tashlamoq)	<i>Ostonadan xonadonga qadam ranjida qilgan har qanday inson bir piyola choy ichib ketishi azaliy odat hisoblanadi. (matbuotdan); Uyingizga qadam ranjida qilgan odamning oldiga peshvoz chiqing va ular bilan chiroyli muomala qilingki, ular sizning duoingizni qilsin. (“Qobusnoma”dan); Goʻzal dildori chiroyli kiyingan holda gulshanga qadam ranjida qilib, Majnun oldiga keldi. (A. Navoiy); Qadam ranjida qil koʻnglum uchun, ey yorning oʻqi, Mening bu notavon koʻnglumga chun</i>

		darmondin ortuqsen! (Bobur); Ey falak, hushyor bo'l, doim ko'zim uchadi, shoh faqir tomonga qadam ranjida qilayotganmikan-a? (Foniy)
2	Muayyan manzildan ko'rsatilgan manzil tomon ko'tarinki kayfiyatda harakatlanish (ekv. qadam bosmoq, qadam qo'ymoq, qadam tashlamoq, bormoq); (ekv. ketmoq, jo'namoq, bormoq)	Bugun qaysiki qishloq yoki mahalla ko'chasiga qadam ranjida qilmang, gulga burkangan dov-daraxtlarni ko'rib dilingiz yayraydi. (matbuotdan). Agar aynlar yurti Yaponiyaga qadam ranjida qilishni istab dengiz sayohatini ixtiyor qilsangiz, ruhiyatingizda o'zgacha zavq tuyasiz (matbuotdan).
3	Subyekt tomonga harakatlanishda kesatiq, kinoya semasi (kelmoq, tashrif buyurmoq)	Axiyri, o'zlari ham biz tomonga qadam ranjida qilidilar-da! Uning biz tomonlarga qadam ranjida qilishida bir gap borga o'xshaydi, bo'lmasa buncha serqatnov bo'lib qolmasdi.
4	Subyekt tomonga harakatlanishda yalinib yolvorish semasi (bir qadam tashla, bir qadam kel)	Ey mug'bacha, rindlar faqir bo'lsalar ham, bir qadam ranjida qil... (A. Navoiy)
5	Paydo bo'lish, yaratilish semasi (tug'ilmoq, dunyoga kelmoq), evfemizm	Alalhozal alqiyos to'qquz oy, to'qquz kun va to'qquz soat o'tub, ro'zi dushanba yarim kecha vaqti oyning o'n to'rtinchi kuni mohitobonning ayni to'lishgan zamonida yorug' dunyog'a barq urub, qadam ranjida qilinubdir. (A. Qodiriy)
6	Subyekt tomon tezlik bilan harakatlanish (kelib qolmoq)	Ne karamki, Ahmadxo'ja hech kutilmaganda, barvaqt qadam ranjida qildi. (T.Malik)
7	Subyekt tomon harakatlanishda hurmat semasi (kelmoq, tashrif buyurmoq)	Do'ppi tor kelib qolibdi-da, mayorning o'zi qadam ranjida qilayotgan bo'lsa, demak, akaxonim yaxshilab tuzlaganlar. (T. Malik); Hozir bu yerga oliy zotlar qadam ranjida qilurlar. Taxtiravon

		<i>qayerda? ("Yulduzli tunlar"dan)</i>
8	Subyekt tomon harakatlanishda hayotini o'zgartirish semasi (kirib kelmoq, qadam qo'ymoq)	<i>U yangi bir olamga qadam ranjida qilmoqda edi, qachonlardan beri shuni orzu qilib kelgandi. (Mopassan); Ana endi ilm olamiga qadam ranjida qildingiz, parvozingiz bexatar, ilmingiz har qanday zavoldan xoli bo'lsin dedilar; duo qildilar. (Matbuotdan); «Ey rafiqi jonim, otam el bilan kengashib ertaga meni o'ldirib, qonim bilan yerni bo'yamoqchi. Sizlar ham qadam ranjida qilib, bu yon kelib, meni xushdil-u bahramand etdingiz. (A.Navoiy)</i>

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan misollarda asosan harakatning ikki xil: kelish (1, 3, 4, 5, 6, 7, 8) va ketish (2) qarama-qarshi yo'nalishi aks etgan. “**Qadam ranjida qilmoq**” frazemasining nutq jarayonida subyekt yoki obyekt tomondan harakatlanishdan ko'ra subyekt yoki obyekt tomonga qarab harakatlanish yo'nalishi semalari ko'proq uchrashini kuzatish mumkin. Shu bois mazkur frazemaning giperonim-totonim munosabati quyidagicha belgilanadi:

- subyekt yoki obyekt tomonga yo'nalish: kelmoq (giperonim); qadam ranjida qilmoq, tashrif buyurmoq, qadam tashlamoq, qadam bosmoq, qadam qo'ymoq, qadam olmoq (troponim, giponim);**
- subyekt yoki obyekt tomonni tark etish: ketmoq (giperonim); qadam ranjida qilmoq, bormoq, jo'namoq (troponim, giponim);**
- tug'ilish bilan bog'liq evfemizm: tug'ilmoq (giperonim); qadam ranjida qilmoq, dunyoga kelmoq, dunyoga tashrif buyurmoq (troponim, giponim).**

“**Qadam ranjida qil(moq)**” fe'lining tezaurus lug'atlarda quyidagicha ifodalash mumkin:

1.Morfologiya va sintaksisda: “*qadam*”, “*ranjida*”, “*qilmoq*” leksemalarining yaxlitlashuvidan frazema hosil bo'lgan.

fe'l so'z turkumiga mansub, tuslanadi: *qadam ranjida qildim, qadam ranjida qilyapman, qadam ranjida qiladi; qadam ranjida qildik, qadam ranjida qilasiz, qadam ranjida qildingiz(lar);*

2.Talaffuz qilinishi: qadam ranjida qil

3. Ma’no tarkibi: *qadam ranjida qilmoq* - “bir joydan boshqa joyga harakatlanmoq, kelmoq, ketmoq, tug’ilmoq” ma’nolarini anglatadi.

A) sinonimlari: *tashrif buyurmoq, yurmoq, bormoq, qadam tashlamoq, odimlamoq, qadam qo’ymoq*;

B) antonimi: *to’xtamoq, bir joyda qotib qolmoq*

D) giperonimi: *yurmoq*– giperonim, *qadam ranjida qilmoq* –giponim (troponim)

E) giponim (troponim)i: *kelmoq*– giponim (troponim), *qadam ranjida qilmoq* - giperonim

H) qarindoshlik so’zlari: oyoq yordamida harakatlanmoq, qadam (odim), makon, tomon, barvaqt.

4. Etimologiyasi: “*qadam*” asli arab tilidan kirib kelgan so’z bo’lib, “**oyoq kafti, tovon; oyoq**” ma’nolarini anglatadi;

“*ranjida*” so’zi asli fors tilidan kirib kelgan, o’zida “**uringan, qiynalgan, ozor chekkan**” semalarini idodalaydi;

“*qilmoq*” o’z qatlamga oid so’z bo’lib, “**bajarmoq, bajo keltirmoq**” kabi ma’nolarga ega.

5. Turli xil lug’aviy birliklar (leksemalar) o’rnida qo’llanilishi: *qadam tashlamoq (qadam otmoq), qadam bosmoq, qadam qo’ymoq, qadam olmoq, qadamlamoq*;

6. Boshqa tillarda qo’llanilishi, Ingliz tilida “*step*”, nemis tilida “*schreiten (schritt, geschritten)*”, rus tilida “*uazamb*”, turk tilida “*teşrif etmek, adım atmak*”.

Natijalar va muhokama. “Qadam ranjida qilmoq” frazeologik birligi semantik jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi fikrlarga kelindi:

1. Umuman olganda, “sekin harakatlanish” uning birlamchi semasi bo’lsa, so’zlovchining subyektiv munosabati “ko’tarinki kayfiyatda harakatlanish; hurmat va kesatiq-kinoya” ma’nolari ikkilamchi semadir. Ammo **barvaqt + qadam ranjida qilmoq** shaklidagi birikmalarda “muddatdan oldin kelish, tezroq harakatlanish” semasini ifodalashi mumkin.
2. Badiiy matnlarda mazkur frazema “bir” so’zi bilan kelib, “yalinib yolvorish” semasini namoyon etadi.
3. Dunyo(ga) + qadam ranjida qilmoq birikmasi shaklida kelganda “tug’ilmoq, dunyoga kelmoq” ma’nolari yuzaga chiqadi.
4. Yangi bir (masalan, ilm) olam(i) (ga) + qadam ranjida qilmoq shaklidagi birikma ko’chma ma’noga asoslangan bo’lib, unda inson hayotini muayyan bir tomonga o’zgartirish semasi ifodalanadi.

Umuman olganda, lugʻaviy birliklar semantikasini ishlab chiqishdan maqsad kompyuter tilshunosligi uchun oʻzbek tilidagi soʻzlarning koʻp tilli elektron, ontologik, tezaurus, Wordnet lugʻatlar bazasini yaratish zarurligini, shu bois ushbu tadqiqotda oʻzbek tilida lugʻaviy birliklarning, xususan, **“qadam ranjida qilmoq”** frazemasining semantikasining kognitiv mohiyati, lingvistik maʼnolari tizimining leksikografik tasvirini ishlab chiqishga ilk fikr-mulozalarni tahliliy bayon qilishga qisman boʻlsa-da harakat qilingan.

Adabiyotlar

- Yartseva, V. N. vd. (1990). *Lingvističeskiy ensiklopedičeskiy Slovar*. Moskova: Sovetskaya Ensiklopediya.
- “Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari”.
- Ilmiy maqolalar toʻplami*. Xujand: Nuri maʼrifat, 2011.
- OʻzTIL (2008). *Oʻzbek tilining izohli lugʻati*. C. 3, 4, 5, 6. Taşkent: Özbekistan Milliy Ensiklopediyasi.
- Rahmatullayev, Ş. (1978). *Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati*. C. I. Taşkent: Oʻqituvchi.
- Roget, P. (1988). *The New Thesaurus*. Boston: Houghton Mifflin.
- <https://en.wikipedia.org/wiki/Thesaurus>
- <http://lcweb.loc.gov/z3950/agency/profiles/zthes-04.html>
- <https://uz.maywoodcuesd.org/difference-between-dictionary-and-thesaurus-1852>